

O'ZBEKISTONDA TURIZIMNING BARQAROR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna

**Navoiy Viloyati Turizm boshqarmasi PR, marketing tadqiqotlari,
xalqaro aloqalar va reytinglar bilan ishlash bo'yicha bosh muhassis**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14835558>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda turizmning barqaror rivojlanish yo'nalishlari va holati va taraqqiyoti industriyasi, ichki turizmni rivojlantirishning dolzarbligi va mamlakatning turizm infratuzilmasi tarmoqlariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va strategiyasini amalga oshirish jarayonida muhim tarmoqlardan biriga aylanib ulgurgan soha hisoblanadi.

Kalit so'zlar: turizmni rivojlantirish, turizm yo'nalishi, sayohat, turist, ichki turizm, turizm imkoniyatlari.

Аннотация: В данной статье направления, состояние и развитие развития туризма в Узбекистане уделяют особое внимание деятельности по развитию туризма в рамках отрасли и туристической инфраструктуры страны, большой, сфера, вышедшая на одно из важных направлений в процессе реализации государственной политики и стратегии развития экономического туризма.

Ключевые слова: развитие туризма, туристическое направление, путешествие, турист, внутренний туризм, туризм.

Bugungi davrda turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotga eng tez daromad keltiruvchi sohalardan biri bo'lib, ko'plab mamlakatlar milliy iqtisodiyotini, shu jumladan, mamlakatimiz turizmdan keladigan daromadlardan oshirishga harakat qilmoqda. Darhaqiqat, O'zbekiston ham juda katta turistik salohiyatga ega hisoblanadi. O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi Ma'lumki turizm iqtisodiyotning asosiy serdaromad tarmoqlaridan biridir. Turizm va rekreatsiya faoliyati rivojlangan ayrim davlatlar turistlarining to'xtovsiz oqimi natijasida o'zlarining iqtisodiyotini ancha yaxshilab olishgan. Yurtimizda ham hozirgi kunda ushbu sohani taraqqiy ettirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda turizm komplekslarni innovatsion rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribalarini o'zlashtirish va amaliyotiga qo'llash mazkur sohani yanada yuksalishiga sabab bo'ladi. Aksariyat rivojlangan davlatlarda rekreatsion faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonlari rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan oldinroq boshlangan va ularda bu sohada boy tajriba to'plangan. Mazkur davlatlar tajribalaridan respublikamiz rekreatsiyasini yanada rivojlantirishda qo'llash, ulardan rekreatsion xizmatlarni tashkil etishda foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Jumladan, bugungi kunda Turkiya davlati Yevropa davlatlari orasida eng ko'p turistlar boradigan mamlakatlarining birga aylandi. Turkiya davlatining asosiy kurortrekreatsiya zonasi Qora dengiz bo'yi hisoblanadi. Ushbu hudud jahonning kurort zonalarida o'zining rekreatsion resurslarining boyligi bilan ajralib turadi. Bu yerda, birinchi navbatda inson salomatligi uchun iqlimining qulayligi ko'plab rekreatslarni o'ziga jalb etadi. Shuningdek, bu davlatda Marmar dengizi (Bursa, Istanbul turistik markazi), Egey qirg'oqlari (Bodrum va Marmaris aholi punktlari), O'rta Yer dengizi qirg'oqlari (Antaliya, Alaniya, Kemar, Side) kabi hududlarida shifobaxsh xususiyatga ega bo'lgan qumloq qirg'oq (plyaj)larning mavjudligi rekreatsiyani rivojlantirishga ososiy omil hisoblanadi Mustaqillik va undan keyin davrlarda

qator o'zgarishlar yillar davomida rivojlanib bordi va turizm dunyodagi eng tez suratlarda rivojlanayotgan iqtisodiy yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu albatta zamonaviy turizm rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq.

Dunyo miqyosida turizm sohasida mamlakatlar duch keladigan muammolar juda ko'p va murakkabdir. Biroq, ushbu muammolarni hal etish O'zbekistonga ega bo'lgan resurslarni namoyish qilish uchun yuqori darajadagi hamkorlik va muvofiqlashtirishni talab qiladi, xalqning tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va yuksaltirish, milliy an'ana va urf-odatlarini, respublikaning diqqatga sazovor joylarini tiklash va obodonlashtirish bilan bir qatorda bu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi.

Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish haqida so'z yuritar ekanmiz, turizmni joylashtirish modeli va modernizatsiya qilish, xizmatlarni tizimlashtirish va turizm infratuzilmasi yetkazib beruvchilarining jahon turizm bozoriga integratsiyalashuvi bosqichlari, sohaga xorijiy investitsiyalar va kreditlarni asosiy sifatida qayd etishimiz lozim. So'nggi yillarda mintaqaga tijorat qiziqishi sezilarli darajada o'sdi, yaqin Sharq va Osiyo o'rtasidagi infratuzilmasi va ishlab chiqarish sarmoyalari savdosining ko'payishi bilan jonlandi.

YUNVTO ma'lumotlariga ko'ra, hukumat infratuzilmani yaxshilash va uning ulanishini osonlashtirish, axborot kompyuter texnologiyalarini (AKT) rivojlantirish va harakatchanlikni oshirish mamlakatning turizm sohasi uchun ko'proq imkoniyatlar yaratishi kerak deb hisoblamoqda. Shunga qaramay, O'zbekistonda turizmni rivojlantirishga qator to'siqlar to'sqinlik qilmoqda. Viza va chegarani kesib o'tish rasmiyatchiliklari, transport infratuzilmasi, korporativ boshqaruv va sifatni ta'minlash Ipak yo'li tashkilotining global turizm tavsiyalari ("Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonga alohida e'tibor qaratgan holda turizm salohiyatini oshirish bo'yicha strategik tavsiyalari" 2012), bundan tashqari, turizm sohasi mutaxassislari va mutaxassislarni yaxshi biznes imkoniyatlarini yaratish va hududda turizm yo'nalishini joylashtirish hisobiga soha va sanoatni modernizatsiya qilish va integratsiyalashtirish, marketing va manzillarni boshqarish, investitsiyalar bo'yicha takliflar va ushbu muammolarni hal qilish uchun sayohatni osonlashtirish kabi masalalarga e'tibor qaratish lozimligini ko'rishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki, turizmni rivojlantirish sohasidagi chora-tadbirlar, ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlar imkoniyatlarini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini yaxshilash sezilarli ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimizning 2017-yil 16-avgustdagi "2018– 2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi choratadbirlar to'g'risida"gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qarorga ko'ra, 2018–2019 yillarda soha oldida turgan muhim masalalar yechimiga bag'ishlangan alohida dastur tasdiqlandi va uning to'liq ijrosini ta'minlash va sohada olib borilayotgan ishlarni idoralararo muvofiqlashtirish maqsadida Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirish kengashi tuzildi.

Ko'plab xalqaro nashrlarning fikriga ko'ra, mamlakatimiz 2020-yilda eng jozibador sayyohlik joylaridan biriga aylangan. Shu yili Buyuk Britaniyaning The Telegraph gazetasi tashrif buyurish lozim bo'lgan shaharlar ro'yxatini e'lon qildi. Shular qatorida bizning Toshkent shahri ham kiritilgan. O'zbekistonda turizm sohasining izchil rivojlantirilishi mamlakatimizni ushbu yo'nalishdagi yuqori ko'rsatkichli xalqaro reytinglarga kiritish imkonini berdi. Xususan, o'tgan yil davomida O'zbekiston 10 ga yaqin nufuzli nashrlar ("The

New York Times” (AQSh), “The Guardian” (Buyuk Britaniya), reyting kompaniyalari va portallari (“CrescentRating”, “Wegoplace”) tomonidan eng sayohatbop turistik mamlakatlardan biri sifatida tan olindi. Eng nufuzli xalqaro reytinglardan biri hisoblangan “WTTTC” reytingida O‘zbekiston 183 o‘rinni egalladi.

2022- yilda O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan 4 968,1 ming kishi tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 94,9 % ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan – 264,7 ming kishi tashrif buyurgan. Xorijiy fuqarolarning respublikamizga eng ko‘p oqimi quyidagi davlatlardan tashrif buyurganini ko‘rishimiz mumkin: Qozog‘istondan – 1 551,1 ming kishi, Tojikistondan – 1 448,0 ming kishi, Qirg‘iz Respublikasidan – 1 356,9 ming kishi, Rossiyadan – 567,6 ming kishi, Turkiyadan – 75,5 ming kishi, Janubiy Koreyadan – 20,0 ming kishi, Germaniyadan – 17,7 ming kishi, Hindistondan – 16,8 ming kishi, Belarus Respublikasidan – 13,7 ming kishi, AQShdan – 13,2 ming kishi, Isroildan – 11,3 ming kishi, Ukrainadan – 11,1 ming kishi, Fransiyadan – 10,9 ming kishi va Buyuk Britaniyadan – 10,4 ming kishi. Qolgan 108,6 ming kishi O‘zbekistonga boshqa xorijiy davlatlardan kelganlarni tashkil qildi. O‘zbekistonga bundada ko‘proq turistlar oqimini jalb qilish maqsadida mamlakat aeroportlari modernizatsiya qilinmoqda va kengaytirilmoqda.

Yurtimizda moddiy ashyolarni asrash bino va inshootlar rekonstruksiyasini jadal rivojlantirish bo‘yicha qator ishlar olib borildi va bu borada Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida alohida qonun sifatida belgilab qo‘yildi. Ushbu Qonunning maqsadi O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi bo‘lmish madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. diqqatga sazovor joylar — inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo‘lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarhi markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek ko‘hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar; yodgorliklar — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ayrim imoratlar, binolar va inshootlar, ular bilan bog‘liq bo‘lgan rassomlik, haykaltaroshlik, amaliy bezak san‘ati asarlari hamda shu imoratlar, binolar va inshootlarning tarixan tarkib topgan hududlari, shuningdek memorial uylar, kvartiralar, qabristonlar, maqbaralar va ayrim qabrlar, monumental san‘at asarlari, fan va texnika (shu jumladan harbiy texnika) obyektlari, antropologiya, etnografiya, numizmatika, epigrafika, kartografiya, fotografiya materiallari, kinofilmlar, audio-, video yozuvlar hamda boshqa jismlardagi yozuvlar, adabiyot va san‘at asarlari, arxiv, qo‘lyozma va chizma hujjatlar, qadimgi qo‘lyozma kitoblar, harf terish usulida chiqarilgan dastlabki kitoblar, nodir va noyob nashrlar, notalar, muqaddas buyumlar va memorial xususiyatga ega bo‘lgan ashyolar, tosh haykallar, qoyaga o‘yib solingan tasvirlar, arxeologiya yodgorliklari; madaniy meros obyektlari — moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari; moddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan ansambllar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar; nomoddiy madaniy meros obyektlari — tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o‘zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so‘z, raqs, musiqa, tomosha san‘ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san‘ati bilan bog‘liq bilimlar, ko‘nikmalar, asbob-anjomlar,

artefaktlar, madaniy makonlarni qayta tiklash va ularda rekanstruksiya ishlarini olib borishga keng ahamiyat qartildi. Bularning ortidan ko'zlagan maqsad esa Ichki turizmni rivojlantirish qolaversa ajdodlar ruhini shod qilish desam mubolag'a bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki Mustaqillik yillarida yurtimiz ijtimoiy hayotida olib borilgan barcha ma'naviy va ma'rifiy ishlar salmog'i sezilarli darajada ortdi asrlar davomida yo'qolib borayotgan urf-odat, qadiryat va an'analar qayta tiklandi, va biz yoshlar uchun ulkan marra va zafarlar quchishimizda harqanday zaruriy choralar ko'rildi. Yuzlab sport majmualari, kutubxonalar, yangidan yangi ish o'rinlari tashkil qilindi. Mamlakatimiz hududidagi diqqatga sazovor joylarga tashrif ichki turizmni rivojlantirish moddiy ashyolarni asrash bino va inshootlar rekanstruksiyasini jadal rivojlantirish kabi masalalar yuzasidan olib borilgan islohatlar yuzasidan to'xtalib o'tadigan bo'lsak yurtimiz hududida judaham ko'plab qadimiy inshootlar bunyod etilgan. Bugungi kunga kelib esa ularning ayrimlarini qayta tiklash ularning atrofi va moddiy bazasini shakillantirishga katta e'tibor qaratildi. Shaxsan men 2021-yil Xorazm viloyati Urganch shahriga sayohatga borgan vaqtimda anashunday qayta tiklash ishlarni samarasini o'z ko'zim bilan ko'rib judaham hursand bo'lganman. Sababi olib borilgan ishlarni ortidan qadimiy binolarni, qadimgi shaharni anashu davirdagidek ko'rishga va biroz bo'lsada moziyga qaytib anashu davr havosidan nafas olishga muyassar bo'lganman. Albatta bunday ishlarni yurtimizning har bir nuqtasidan ko'rib kuzatishimiz mumkin. Bularning barchasi barchasini mamlakatimiz rivoji uchun xizmat qilishi shak shubhasizdir.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 5-yanvardagi "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son farmoninh 1-ilovasidan.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 16-avgustdagi "2018-2019-yillarda turizm sohasidagi rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan.
3. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari.-T.: Fan va texnologiya, 2014.